

O'ZBEK JURNALISTIKA TERMINOLOGIYASIDAGI ARABCHA O'ZLASHMALAR

Sa' dullaeva Hulkar Narzullayevna

Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek jurnalistikasidagi arabcha o'zlashmalar tahlili keltiriladi. Jurnalistika terminologiyasining leksik qatlami tahlil qilinadi. Maqola o'zbek jurnalistikasi terminlarining tarixiy rivojlanishi, ularning hozirgi kundagi tahlili haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, arab tilidan o'zlashgan so'zlarning kelib chiqish etimologiyasi va qo'llanilishi haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot, matbuot, muxbir, nashr, e'lon, taqriz, muharrir, tahrir, tanqid, maqola.

WORDS BORROVED FROM ARABIC IN UZBEK JOURNALISTIC TERMINOLOGY

Abstract: This article presents an analysis of Arabic borrowings in Uzbek journalism. The lexical layer of journalism terminology is analyzed. The article provides information on the historical development of Uzbek journalism terms, their current analysis. It also discusses the etymology and use of words borrowed from Arabic.

Keywords: information, press, reporter, publication, announcement, review, editor, editing, criticism, article.

СЛОВА, ЗАИМСТВОВАННЫЕ ИЗ АРАБСКОГО ЯЗЫКА, В ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация: В данной статье представлен анализ арабских приобретений в узбекской журналистике. Анализируется лексический слой публицистической терминологии. В статье представлены сведения об историческом развитии терминов узбекской журналистики, их современном анализе. Также обсуждается этимология и использование слов, заимствованных из арабского языка.

Ключевые слова: информация, пресса, репортер, публикация, объявление, рецензия, редактор, редактирование, критикаб статья.

Jurnalistika – ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning aks etishi, ommaviy axborot vositalarida axborot taqdim etish va undan foydalanuvchi jamiyatni shakllantirish jarayonidir. Jurnalistik terminologiya esa shu sohaga xos tushunchalarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Jurnalistika terminologiyasi tilning o'zgaruvchan va rivojlanuvchan qismidir. U milliy va global jarayonlar ta'sirida vujudga kelgan so'z va atamalar orqali ommaviy axborot vositalarining faoliyatini ifodalaydi. O'zbek jurnalistik terminologiyasi zamonaviy tishunoslik va OAV rivoji bilan bog'liq holda shakllanib kelmoqda. O'zbek tilida ushbu sohaga oid yangi so'zlar va tushunchalar tez-tez paydo bo'lyapti, bu esa zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'sirini aks ettiradi.

Yangi texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ommaviy axborot vositalariga oid yangi soʻzlarning paydo boʻlishiga asos boʻlmoqda. Bilamizki, til leksikasi toʻxtovsiz oʻzgarib turadi. Bu narsa lugʻat tarkibida yangi soʻzlarning vujudga kelishi, mavjud soʻzlardan ayrimlarining eskirib, isteʼmoldan chiqishi, leksik maʼnosini oʻzgartirib, yangi maʼno kasb etishi kabi jarayonlarda koʻrinadi. Oʻzbek tili leksikasi bir qancha manba asosida boyib, rivojlanib boradi. Uni eng avvalo, ikkita katta guruhga ajratish mumkin: 1) ichki imkoniyat; 2) tashqi imkoniyat. Shuningdek, oʻzbek jurnalistikasi terminologiyasi ham asosan quyidagi manbalar orqali shakllanadi:

1. Oʻzbek tilining ichki imkoniyatlari yangi soʻz va iboralar yaratish, soʻz yasash orqali jurnalistik terminlar hosil qilish sanaladi.

2. Tashqi imkoniyat asosida boyishi. Bunda oʻzbek jurnalistikasi terminologiyasiga arab, lotin, rus va boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish tushuniladi.

Quyida arab tilidan oʻzlashgan ayrim soʻzlar bilan tanishamiz:

Matbuot (مطبوعات) soʻzi arabcha “tabaa” (طبعة) – “bosmoq” soʻzidan olingan boʻlib, “bosma mahsulot” degan maʼnoni bildiradi. Yaʼni bosma usulda chiqariladigan, koʻpaytiriladigan barcha mahsulot matbuotni tashkil etadi.¹

Bu arabcha soʻz *matbūʿāt(un)* shakliga ega; oʻzbek tiliga itqi undoshini *t* undoshiga, choʻziq *ū* unlisini *u* unlisiga, choʻziq fathali ayinni *ā* unlisiga almashtirib qabul qilingan: *matbūʿāt – matbuāt(matbuot)*. Bu soʻz asli *tabaʿa* feʼlining ‘chop etdi’ maʼnosi bilan hosil qilingan *matbūʿ(un)* I bob majhul nisbat sifatdoshidan *–at(un)* qoʻshimchasi bilan yasalgan mavhum otning koʻplik shakli boʻlib, arab tilida ‘chop etilgan asarlar’, ‘bosma’ maʼnolarini, oʻzbek tilida esa ‘nashr ishlari bilan shugʻullanuvchi soha’ maʼnosini anglatadi.²

Taqriz (تقرير) – arabcha “baho bermoq”.³ Arab tilidan olingan bu soʻz retsenziya yozish; biror kitob(asar)ni maqtab yozish maʼnosida qoʻllanadi.

Bu arabcha soʻz *taqrīd(un)* shakliga ega oʻzbek tiliga choʻziq *ī* unlisini *i* unlisiga dzad undoshini *z* undoshiga almashtirib qabul qilingan: *taqrīd – taqriz*; qarrada feʼlining ‘biror asarning yutuqarini bayon qildi’ maʼnosi bilan hosil qilingan II bob masdari boʻlib, oʻzbek tilida ‘biror asarning yutuq-kamchiliklari bayon qilingan matn’(retsenziya) maʼnosini anglatadi.⁴

Xabar (خبر) soʻzining arabchadan darak, maʼlumot; ovoza degan maʼnolari mavjud.

Bu arabcha soʻz ‘tajribaga ega boʻldi’, ‘amaliy jihatdan bildi’ maʼnosini anglatuvchi *xabara* feʼlining I bob masdari boʻlib, ‘kim yoki nima haqidagi maʼlumot’, ‘darak’ maʼnosini anglatadi.⁵

Axborot (أخبار) Bu arabcha soʻz *xabar* soʻzining koʻplik shakli *axbor(un)* soʻzidan *–at(un)* qoʻshimchasi bilan yasalgan mavhum ot boʻlib, ‘xabarlar’, ‘maʼlumotlar’ kabi maʼnoni anglatadi. Bu oʻzbek tili lugʻatida tojik tili lugʻatidan

¹ Xudoyorqulov M. Jurnalistikaga kirish. –T.: OʻzMU, 2005. – B.3.

² Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. –T.: OʻzMU, 2003. – B.243.

³ Xudoyorqulov M. Jurnalistikaga kirish. –T.: OʻzMU, 2005. – B.33.

⁴ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. –T.: OʻzMU, 2003. – B.439.

⁵ Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. –T.: OʻzMU, 2003. – B.473.

axborot shaklida kiritilgan, vaholanki *axbor* so'zining o'zi *xabar* so'zining ko'plik shakli bo'lib, unga yana *–āt(un)* ko'plik qo'shimchasi qo'shilmaydi. *Axbor* so'zi hozirgi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydi.⁶

Mutaxassislar fikricha, jurnalistikada oldindan ma'lum bo'lmagan biror narsa, voqea haqidagi har qanday xabar *axborot* deb ataladi.⁷

Muxbir (مُخْبِر) arab tilidan xabarchi, xabar beruvchi; ayg'oqchi deb tarjima qilinadi.

Bu arabcha so'z *muxbir(un)* shakliga ega; *xabara* fe'lining 'xabar berdi', 'xabardor qildi' ma'nosini anglatuvchi IV bob shakli *ʔaxbara* so'zidan hosil qilingan aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, arab tilida 'xabardor qiluvchi', 'reportyor' ma'nosini, o'zbek tilida esa 'axborot vositalariga turli xabarlar, maqolalar yozib yuborib turuvchi kishi' ma'nosini anglatadi.⁸ Demak, *muxbir* so'zi ham xabar so'zidan kelib chiqqan ekan.

E'lon (إِغْلَان) arab tilidan ko'pchilikka ma'lum qilish, bildirish; xabarnoma ma'nosini bildiradi.

Bu arabcha so'z *ʔiblān(un)* shakliga ega; o'zbek tiliga kasrali hamzani *e* unlisiga, cho'ziq *ā* unlisini *â* unlisiga almashtirib, sukunli ayn o'rniga *ʔ* (ayirish) belgisini qo'yib qabul qilingan: *ʔiblān* – *ʔblān* (*ʔblon*); *ʔaluna* fe'lining 'xabarni ma'lum qildi' ma'nosi bilan hosil qilingan IV bob shakli *ʔalana* so'zidan hosil qilingan masdar bo'lib, 'rasman ma'lum qilingan xabar' ma'nosini anglatadi.⁹

Tahrir (تَحْرِير) arabcha – ozod qilish; tuzatish, muharrirlik qilish; yozish, asar yozish ma'nolarida qo'llaniladi.

Bu arabcha so'z *tahrīr(un)* shakliga ega; o'zbek tiliga hoyi hutti undoshini *h* undoshiga, cho'ziq *ī* unlisini *i* unlisiga almashtirib qabul qilingan: *tahrīr* – *tahrir*; ko'p ma'noli *harra* fe'lining 'tekshirdi' ma'nosini anglatuvchi *harrara* II bob shaklidan hosil qilingan masdar bo'lib, 'biror matnni tekshirib, tuzatishlar kiritish' ma'nosini anglatadi.¹⁰

Nashr (نَشْر) arabchadan tarqatish, targ'ibot; chop etish, bosib chiqarish ma'nolarini anglatadi.

Bu arabcha so'z *nashr(un)* shakliga ega; *nashara* fe'lining 'chop etdi' ma'nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo'lib 'chop etish' ma'nosini anglatadi. Ilangiladi. 1) Nashriyot yoki boshqa mas'ul nashrlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, bosmaga tayyorlovchi xodim; 2) ayrim matbuot organlariga rahbarlik qiluvchi shaxs.

Bu arabcha so'z *muharrir(un)* shakliga ega o'zbek tiliga hoyi hutti undoshini *h* undoshiga almashtirib qabul qilingan. Ko'p ma'noli **harra** fe'lining 'tekshirdi' ma'nosini anglatuvchi *harrara* II bob shaklidan hosil qilingan aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, 'biror matnni tekshirib, o'zgartirishlar kirituvchi' ma'nosini anglatadi.¹¹

⁶ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.: O'zMU, 2003. – B.53.

⁷ Lug'at Jurnalistika Reklama Pablik Rileyshnz. –T.: "Zar qalam" nashriyoti, 2003. – B.27.

⁸ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – T.: O'zMU, 2003. – B.301.

⁹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.: O'zMU, 2003. – B.514.

¹⁰ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.: O'zMU, 2003. – B.441.

¹¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.: O'zMU, 2003. – B.307.

Tanqid (تنقيد) – baho berish maqsadida o‘rganish, tahlil qilish va shu asosidagi xulosa.

Bu arabcha so‘z asli *tanqīd(un)* shakliga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga cho‘ziq *ī* unlisini *i* unlisiga almashtirib qabul qilingan: *tanqīd* – *tanqid*; ko‘p ma’noli *naqada* fe’lining ‘yutuq-kamchiliklarni ko‘rsatib fikr bildirdi’ ma’nosi bilan hosil qilingan II bob masdari bo‘lib ‘yutuq-kamchiliklarini ko‘rsatdan holda bildirilgan fikr’ ma’nosini anglatadi.¹²

Maqola (مقالة) – To‘plam, jurnal, gazeta va shu kabilar uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan ilmiy yoki publitsistik asar.

Bu arabcha so‘z *maqālat(un)* shakliga ega; o‘zbek tiliga *ā* unlisini *â* unlisiga almashtirib, so‘z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: *maqālat* – *maqāla* (*maqola*); asli *maqol* so‘zining ko‘plik –*at(un)* qo‘shimchasi bilan yasalgan shakli bo‘lib, arab tilida ‘nutq’, ‘kichik hajmdagi asar’ ma’nolarini anglatadi, o‘zbek tilida ikkinchi ma’nosi bilan ishlatiladi.¹³

Ko‘rinib turganidek, o‘zbek jurnalistikasi terminologiyasi o‘ziga xos leksik qatlamlarga ega bo‘lib uning shakllanishida nafaqat milliy til imkoniyatlari, balki xorijiy tillardan kirib kelgan terminlar va ijtimoiy-madaniy jarayonlar muhim rol o‘ynaydi. Albatta, bu jarayonlarning barchasi o‘zbek tili leksikasining yanada boyishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyorqulov M. Jurnalistikaga kirish. – T.: O‘zMU, 2005. – 123b.
2. Lug‘at. Jurnalistika reklama pablik rileyshnz ma’lumotnoma. – T.: “Zar qalam” nashriyoti, 2003. – 397b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2023. – 823b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. –T.: O‘zMU, 2003. – 476b.

¹² Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. –T.: O‘zMU, 2003. – B.416.

¹³ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. –T.: O‘zMU, 2003. –B.258.